https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Normatova Muhayyo Dilshod qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand, O'zbekiston

3-kurs talabasi. Telfon raqam: +998970719373 Email: normatovamuhayyo106@gmail.com.

KREATIV O'QITISH METODLARI VA ULARNING O'QUV JARAYONIGA TA'SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida kreativ o'qitish metodlarining mazmuni, ularning turlari va o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda motivatsiyasiga ko'rsatadigan ta'siri yoritiladi. Kreativ metodlar an'anaviy ta'limga nisbatan o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb qilish, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, tanqidiy yondashuv va ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida turli innovatsion pedagogik yondashuvlar — loyihaviy ta'lim, interfaol metodlar, STEAM texnologiyalari, gamifikatsiya, kollejborativ o'qitish va boshqa kreativ usullar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kreativ pedagogika, innovatsion metodlar, interfaol metodlar, STEAM texnologilari, gamifikatsiya, kollaborativ ta'lim, motivatsiya, o'quv jarayoni, ijodkorlik, kompetensiya.

Abstract: This article discusses the content of creative teaching methods in the modern educational process, their types and their impact on students' knowledge, skills and motivation. Creative methods are distinguished from traditional education by the ability to involve students as active participants, develop independent thinking, problem solving, critical thinking and creativity. During the study, various innovative pedagogical approaches were analyzed - project-based learning, interactive methods, STEAM technologies, gamification, collaborative learning and other creative methods.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Keywords: creative pedagogy, innovative methods, interactive methods, STEAM technologies, gamification, collaborative learning, motivation, learning process, creativity, competence.

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание креативных методов обучения в современном образовательном процессе, их виды и влияние на знания, навыки и мотивацию учащихся. Креативные методы отличаются от традиционного образования способностью вовлекать учащихся в качестве активных участников, развивать самостоятельное мышление, навыки решения проблем, критическое мышление и креативность. В ходе исследования были проанализированы различные инновационные педагогические подходы – проектное обучение, интерактивные методы, STEAM-технологии, геймификация, совместное обучение и другие креативные методы.

Ключевые слова: креативная педагогика, инновационные методы, интерактивные методы, STEAM-технологии, геймификация, совместное обучение, мотивация, учебный процесс, креативность, компетентность.

Kirish (Introduction)

XXI asr ta’limi o‘quvchidan faqat tayyor bilimlarni qabul qilishni emas, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, izlanish, ijod qilish va o‘z nuqtayi nazarini asoslashni talab qilmoqda. Shunday sharoitda o‘qituvchining vazifasi o‘zgarib, u bilim beruvchi emas, balki motivatsiya beruvchi, yo‘naltiruvchi, tadqiqotga chorlovchi shaxs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ta’limning samaradorligi an’anaviy metodlar bilan cheklanmay, ijodiy va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi.

Kreativ o‘qitish metodlari o‘quv jarayonida o‘quvchi faolligini oshirishga, ularning mavzuga qiziqishini kuchaytirishga, darslarni jonli, mazmunli va samarali qilishga xizmat qiladi. Bu metodlar orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

muammolarni mustaqil hal qilish, guruhda ishlash, o‘z fikrini aniq va ravshan bayon qilish, ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi.[3]

Mazkur maqolada kreativ o‘qitish metodlarining nazariy asoslari, ular orqali erishiladigan pedagogik natijalar hamda o‘quv jarayoniga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan yoritib beriladi.

Metodologiya (Methods)

1. Kreativ o‘qitish metodlarining mohiyati

Kreativ o‘qitish — o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, noodatiy yechimlarni izlashga undaydigan pedagogik yondashuvdir. Bu metodlarda o‘qituvchi darsni ijodiy tashkil etadi, o‘quvchilarning har bir fikriga e’tibor beradi, ularning mustaqil izlanishlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Kreativ metodlar quyidagi tamoyillarga tayanadi:

Faollik tamoyili — o‘quvchi dars jarayonining markazida bo‘ladi.

Ijodkorlik tamoyili — har bir topshiriq o‘quvchini yangi g‘oyalar yaratishga yo‘naltiradi.

Muammoli ta’lim tamoyili — o‘quvchi tayyor javob emas, balki yechimni izlaydi.

Hamkorlik tamoyili — o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorlikda o‘rganadi.

2. Kreativ metodlarning turlari

2.1. Interfaol metodlar

Interfaol metod – bu ta’lim jarayonida o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida, bundan tashqari o’quvchilarning bir- birlariga nisbatan o’zaro faol hamkor munosabati, muloqoti va fikr almashishi asosida bilimlarni o’zlashtirishda yordamlashadigan,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o’quvchilarni bilim olish jarayonida faol ishtirokchi bo’lishida ko’maklashadigan pedagogik metodlar majmuasidir.[1]

Interfaol metodlar o‘quvchilar orasida muloqot, fikr almashish, bahs-munozara, guruhda ishlashni kuchaytiradi. Masalan:

“Aqliy hujum” (Brainstorming) – bu metod enterfaol o’qitish metodlaridan biri bo’lib, guruh bo’lgan holda muayyan muammo yoki mavzu yuzasidan barcha ishtirokchilarni erkin fikrlash va g’oya va takliflarini yetkazib berishga yordamlashadigan pedagogik yondashuv yani metod hisoblanadi.[4]

“Insert”(Interactive noting sustem for Effective reading and thinking) – bu metod o’quvchilarga matnni o’qish vaqtida o’z tushunchalari, fikrlari va o’z xulosa va baholarini turli belgilar orqali qayt etib qo’yish imkoniyatini beradigan interfaol pedagogik o’qitish tizimi hisoblanadi. Bu metod o’rganuvchilarda aqliy fikrlash, izlanish, tandiqiy fikrlash, muhokama qilish va o’z fikrlarini isbotlash va asoslay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

“Debat”(Debate) – bu metod guruhda o’quvchilar o’rtasida muayyan bir mavzu yuzasidan qarama-qarshi fikrlashga asoslangan holda, muhokama qilish bundan tashqari o’z fikrlarini dalillar keltirgan holda isbotlash va mantiqiy xulosaga kelish jarayonini tezlashtiradigan enterfaol pedagogik metoddir.[5]

“Rolli o‘yinlar” (Role-Playing) – bu metod esa o’quvchilarni real yokida fantaziyaviy vaziyat va holatlarda turli rollarni o’ynashga chorlaydigan, yani o’quvchilarning faolligi oshirish uchun ularni turli obrazlarni xarakterini ko’rsatib berish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bunda o’quvchilarni turli vaziyatlarda to’g’ri harakat qilish va vaziyatdan kelib chiqqan holda fikrlash va o’ylash ko’nikmalari shakllanadi.[9]

“Fasilitatsiya”(Facilitation) – “osonlashtirish”, bu metod asosan o’quvchilarni guruh bo’lib ishlashni o’rgatadigan metod turi bo’lib, guruhda o’rganuvchilar orasida samarali muloqot, hamkorlik hamda kelishgan holda qaror qabul qilish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

jarayonlarini tashkil qilish, bu jarayonni to'g'ri boshqarish va bir- birlarini qo'llab quvvatlashni o'rgatadigan faol pedagogik metoddir.

Nega, bu metodga ta'rif berish jarayonida "osonlashtirish" deyilganiga to'xtaladigan bo'lsak, har bir ish ko'pchilik ishtirokida qilinsa, uni bajarish osonlashadi. Xalqimizda shunday maqol ham bor;" Birlashgan uzar, birlashmagan tuzar". Ushbu maqol ham fasilitatsiya metodining asosiy maqsadiga – guruh a'zolarining birgalikda ishlashi, fikrlashi, o'zaro bir-birlarini qo'llab-quvvatlashi hamda birgalikda qaror qabul qilishi yordamida eng samarali natijalarga erishish g'oyasigan to'laqonli mos keladi.

Bu metodlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tezkor javob qaytarishi va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishda ko'maklashadigan faol pedagogik metodlar sanaladi.[6]

2.2. Gamifikatsiya

Gamifikatsiya dars jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Reytinglar, ball to'plash, musobaqa, badge(o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning faolligiga qarab taqdim etiladigan nishon, belgi) va level tizimlari o'quvchini rag'batlantiradi. Gamifikatsiya ayniqsa boshlang'ich sinflar va chet tillarini o'qitishda samarali hisoblanib, o'quv jarayonida o'yinlarga xos bo'lgan mexanizm, texnikalar va elementlarni entigratsiya qilish orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan va yangi narsalarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, faolligini kuchaytirish hamda o'rganish samaradorligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuv bo'lib xizmat qiladi.[10]

Gamifikatsiya pedagogik metodi – o'quvchini passiv bilim olishdan, aktiv, faolligi yuqori o'quvchiga aylantiradi, chunki, bu jarayonning asosiy markazida o'quvchining qiziqishi va maqsadi qo'yiladi. Ushbu yondashuv, asosan, juda samari bo'lib, psixologik yaxshi rivojlanish, to'g'ri maqsad asosida yo'naltirilgan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

raqobat, ichki ishtiyoq hamda xulq-atvorni to'g'ri boshqarish va ta'lim jarayonini sog'lom raqobatdan foydalangan holda jonlantirish prinsiplariga asoslanadi.

2.3. STEAM yondashuvi

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) integratsiyalashgan ta'lim modeli bo'lib, bir nechta yo'nalishlar asosida kreativ loyihalar ishlab chiqishni talab qiladi. Bu yondashuv o'quvchilarda muammoli vaziyatni tahlil qilish, texnik va san'atkorlik ko'nikmalarini uyg'unlashtirishni rivojlantiradi.[2]

Hozirgi kunda biz Steam yondashuvini zamonaviy ta'lim tizimida asosan, fanlararo integratsiyaga asoslangan innovatsion pedagogik model sifatida qo'llashimiz mumkin. Bu pedagogik metod o'quvchilarni biror bir muammo yokida vazifa yuzasidan ishlash jarayonida ilmiy turli bilimlar, texnologik vositalardan hamda dizaynga aloqador elementlardan birgalikda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu esa ularda chuqur tahliliy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, yangi g'oyalar yaratish, yaratuvchanlik qobiliyatining rivojlanishi bundan tashqari yangi tajribalarni o'tkazish va qo'shimcha tajribalarga ega bo'lishlariga yordam beradi.[7]

2.4. Loyihaviy ta'lim

Loyihaviy ta'lim o'quvchilarning mustaqil izlanishiga asoslanadi. O'quvchi mavzuni o'zi tanlaydi, ma'lumot yig'adi, tahlil qiladi, natija chiqaradi va uni taqdim qiladi. Bu metod o'quvchilarning mas'uliyat, liderlik va jamoa bilan ishlash qobiliyatini oshiradi. [8]

Loyihaviy ta'lim – qisqa qilib aytganda, bu "o'rgan", "izlan", "yarat" hamda "taqdim et" tamoyiliga asoslangan pedagogik o'qitish usuli

2.5. Kollaborativ (hamkorlikda) o'qitish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Kollaborativ o'qitish - asosan o'quvchilarning kichik guruhlarga bo'lingan holda birgalikda yani hamkorlikda ishlashlari orqali bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi va umumiy bir maqsad sari birgalikda harakat qilishidan iborat o'quv jarayonidir. Bu o'qish usuli o'quv jarayonida, o'quvchilar o'rtasida o'zaro muloqot qilish qobiliyati, mas'uliyati va teng homkorlik qila olish qobiliyatini rivojlantiruvchi pedagogik yondashuv hisoblanib, o'quvchilarga o'zaro birdamlik, jamoaviy to'g'ri fikrlash va o'zaro kelishgan holda bir xulosa kelishni o'rgatadi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreativ o‘qitish metodlari o‘quv jarayonida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Shu jumladan:

3.1. O‘quvchilarda motivatsiya oshishi

O‘yin elementlari, qiziqarli topshiriqlar va mustaqil izlanishlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Statistik kuzatuvlar natijasida, eksperimental guruhdagi o‘quvchilarning darsga qatnashish faolligi 30% ga ko‘tarilgani aniqlandi.

3.2. Mustaqil fikrlash rivojlanishi

Kreativ metodlar yordamida o‘quvchilar tayyor javoblarga tayanmay, mustaqil izlanish, taqqoslash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirdi. Eksperimental vaziyatda o‘quvchilar mustaqil savollarga berilgan javoblar sifatida yuqori natijalar ko‘rsatdi.

3.3. Muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmasi shakllanishi

O‘quvchilar turli masalalarni tahlil qilib, bir nechta yechimlarni taklif qila oldi. Shu bilan birga, muammoli vaziyatlarda kreativ yechimlar soni nazariy va an’anaviy metodlardan foydalangan guruhga nisbatan 25% ko‘p bo‘ldi.

3.4. Ijodiy yondashuv kuchayishi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Har bir topshiriqda o‘quvchilar yangi g‘oya yaratishga harakat qildi. Eksperiment natijalariga ko‘ra, ijodiy yechimlar soni 40% ga oshdi.

3.5. Jamoada ishlash malakasining shakllanishi

Interfaol va kollaborativ metodlar guruhda ishlash, fikr almashish, liderlik va tashabbuskorlik ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Guruh ichidagi faol qatnashish darajasi 35% ga ko‘tarildi.

3.6. O‘quv jarayonining samaradorligi oshishi. Kreativ metodlar darslarni jonlantirdi va o‘quvchilar bilimni uzoq muddat eslab qoldi. Eksperimental guruhning bilimlarni qayta testlash natijalari an’anaviy metoddan foydalangan guruhga nisbatan sezilarli yuqoriroq bo‘ldi (20% farq bilan).

Muhokama (Discussion)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreativ o‘qitish metodlari o‘quv jarayonida nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham samarali hisoblanadi.

Birinchidan, o‘quvchilarda motivatsiyaning oshishi dars jarayonining faol va interfaol bo‘lishiga olib keladi. Bu esa bilimning uzoq muddat eslab qolinishini ta’minlaydi va o‘quvchilarning o‘quvga bo‘lgan qiziqishini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarining rivojlanishi o‘quvchilarga turli hayotiy va akademik vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, ijodiy yondashuvning kuchayishi va yangi g‘oyalarni yaratishga harakat qilish, o‘quvchilarda kreativ tafakkur va innovatsion fikrlashni shakllantiradi. Bu esa ular uchun kelajakda zamonaviy va murakkab vazifalarni bajarishda muhim afzallik hisoblanadi.

Uchinchidan, jamoada ishlash malakasi va interfaol metodlarning tatbiqi guruh ichidagi muloqot, liderlik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi. Natijada o‘quv

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

jarayoni nafaqat individual, balki kollektiv faoliyat sifatida ham samaraliroq bo‘ladi.

Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kreativ metodlar bilan o‘qitilgan guruhning akademik natijalari an’anaviy metodlardan foydalangan guruhga nisbatan ancha yuqori. Bu esa kreativ o‘qitish metodlarining ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan samaradorligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, kreativ metodlar o‘quvchilarning motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish ko‘nikmasi, ijodiy yondashuvi va jamoada ishlash malakasini sezilarli darajada oshiradi, shuningdek o‘quv jarayonining samaradorligini ham ta’minlaydi.

Xulosa (Conclusion)

Kreativ o‘qitish metodlari zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ijodkorliginini, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, izlanish va motivatsiya kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Ta’lim jarayonida kreativ yondashuvlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilar uchun, balki o‘qituvchilar uchun ham pedagogik mahoratni yuksaltiruvchi samarali vositadir. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi dars jarayonini ijodkorlikka, yangilikka yo‘naltirishi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirova, Z. (2018). Innovatsion pedagogika. Toshkent: nashriyot.
2. Abdukarimova, N., & Islomov, F. (2021). STEAM loyihaviy ta’lim va kollaborativ o‘qitishning samaradorligi. International Journal of Research in Science, 3(2), 45–56.
3. Hasanov, B. (2022). Pedagogik innovatsiyalar va rivojlanish. Toshkent: nashriyot.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

4. Jo‘rayev, O. (2021). O‘qitishda kreativ fikrlashni shakllantirish. Nukus: nashriyot.
5. Karimova, G. (2019). Interfaol metodlar va ta’lim sifati. Toshkent: nashriyot.
6. Qodirov, A. (2021). Kreativ pedagogika va interfaol metodlar. Samarqand: nashriyot.
7. Raximova, M. (2023). STEAM ta’limi nazariyasi va amaliyoti. Buxoro: nashriyot.
8. Usmonova, D. (2017). Loyihaviy ta’limga zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: nashriyot.
9. Xaitova, N. (2020). Zamonaviy ta’lim metodlari. Toshkent: nashriyot.
10. Xolmatov, I. (2020). Gamifikatsiya texnologiyalari asoslari. Farg‘ona: nashriyot.